

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 4-dekabr, № 251 (8874) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

FARG‘ONA VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA QAROR TAYYORLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 3-dekabr kuni Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Hududlar iqtisodiyotiga e’tibor natijasida Farg‘onada ham imkoniyatlar yuzaga chiqmoqda. So‘nggi 7 yilda sanoat korxonalari qariyb 3 barobar ko‘payib, 13 mingtaga yetgan. Investitsiya loyihalari natijasida 116 mingta ish o‘rni yaratilgan.

Davlatimiz rahbarining shu yil iyul oyidagi tashrifi iqtisodiyot rivojiga yangi sur’at bag‘ishladi. Bu yil 10 oyda xorijiy investitsiyalar hajmi 1,5 milliard dollarni, eksport ko‘rsatkichi 910 million dollarni tashkil qildi.

Endi buni kelgusi yilda ham davom ettirib, investitsiya, ish o‘rni va eksportni ko‘paytirish zarur. Yig‘ilishda Prezident bu boradagi imkoniyatlardan ayrimlarini ko‘rsatib o‘tdi.

Yaqinda “Qo‘qon” erkin iqtisodiy zonasi Quvasoy shahri hisobidan 210 gektarga kengaytirildi. Bu hududda umumiy qiymati 1 milliard dollarlik 185 ta loyihani joylashtirib, qariyb 12 mingta ish o‘rni yaratish mumkin. Shuningdek, Qo‘qonda 71 gektarda texnopark tashkil etilishi birinchi bosqichda 900 million dollarlik, 5 ming ish o‘rniga mo‘ljallangan korxonalarga yo‘l ochadi.

Xitoylik ishbilarmonlar bilan 1 milliard dollarlik, Janubiy Koreya bilan 240 million dollarlik investitsiyaviy kelishuvlarga erishilgan. Ularni amalga oshirish uchun viloyat tuman va shaharlarida 1 ming 210 gektarda sanoat zonalari tashkil qilishga zarurat bor. Bo‘lajak korxonalarda 30 ming kishi, jumladan, kambag‘al oila vakillari ish bilan ta’minlanadi.

Beshariq tumanida savdo-logistika markazi qurilishi boshlangan. U xuddi Termizdagidek, erkin savdo zonasiga aylantirilib, do‘konlar tadbirkorlarga ijaraga beriladi. Buning samarasida viloyat eksporti qo‘shimcha 50 million dollarga, ish o‘rinlari esa 2 mingga ko‘payadi. Shunday majmuani Quvasoy shahrida ham barpo etish mumkin.

Qishloq xo‘jaligida ham katta imkoniyatlar bor. Farg‘onada aholi ixtiyorida, yo‘l va dala chetlarida, suv va o‘rmon fondida jami 91 ming gektar yer mavjud. Ulardan unumli foydalanib, mahsulotlarni hamda qayta ishlashni ko‘paytirish zarur.

Masalan, Farg‘ona tumanidagi 15 ta mahallada yiliga 6 ming tonna malina yetishtiriladi. Ularga yaqin hududdan yer berilsa, tadbirkor malinani saqlash, qayta ishlash va qadoqlashni yo‘lga qo‘yib, qo‘shilgan qiymatni 2,5 karra oshirish taklifini bildirgan. Boshqa bir tashabbuskor So‘xdagi o‘rmon yerini ijaraga olib, 800 gektarda kavrak, 50 gektarda za’faron yetishtirmoqchi.

Oltiariqdagi ikkita nasos stansiyasiga 9 kilometr quvur tortib, quvvatini oshirish orqali 1 ming 400 gektarda intensiv bog‘ qilsa bo‘ladi. Unda qo‘shimcha 55 ming tonna eksportbop meva yetishtiriladi.

Yig‘ilishda Farg‘ona viloyati hokimi shu kabi imkoniyatlarni ishga solish bo‘yicha rejalarini taqdimot qildi. Xususan, kelgusi yilda 3,7 milliard dollar investitsiya olib kelish, eksportni 1,5 milliard dollarga yetkazish mo‘ljallangan. 500 ming fuqaroning bandligini ta’minlash, 22 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish vazifa qilib olingan.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni takomillashtirib, viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha qaror tayyorlashga ko‘rsatma berdi. Eksportchilarga barcha qulayliklarni yaratish, bandlikka ko‘maklashib, ishsizlikni kamaytirish zarurligi ta’kidlandi. Hokimlar va boshqa mutasaddilarning bu boradagi mas’uliyatini oshirish shartligi belgilandi.

O‘zA.

Yurtimiz bo‘ylab

HAR TUP NIHOL — YASHILLIK RAMZI

Bugun dunyo miqyosida olganda ham tabiatni asrab-avaylash eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho‘llanish, global isish va boshqa yana qator omillar tabiiy muvozanatga hamda odamlar salomatligiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois ko‘plab davlatlarda ushbu masala yechimiga alohida e’tibor qaratilayotir. Yurtimizda ham atrof-muhitni muhofazalash va kelgusi avlodlarga musaffo tabiat qoldirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan uch yil avval boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi chinakam xalq harakatiga aylandi. Har yili bahor va kuz mavsumida daraxt ko‘chatlari o‘tqazish an’anasi jonlanib, u odamlar orasida ekologiyaga bo‘lgan mas’uliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Tabiiyki, Oliy Majlis Senati a’zolari ham ushbu muhim loyihaga o‘z hissasini qo‘shib, uning doirasidagi turli tadbirlarda faollik ko‘rsatib kelmoqda.

Jumladan, parlament yuqori palatasining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisi Abdulhakim Eshmuratov “Agro Processing Group & Agro Feed” korxonasi xodimlari bilan birga Surxondaryo viloyatining Qumqo‘rg‘on tumanida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarida qatnashdi. Aniq aytadigan bo‘lsak, shu sa’y-harakatlar chog‘ida mineral va organik o‘g‘itlar bilan oziqlantirilgan yer maydoniga 3 mingdan ziyod mevali ko‘chatlar o‘tqazildi.

➡2

Jarayon

«MAHALLA YETTILIGI – KENGASH – SENAT»

Ushbu uch bo‘g‘inli hamkorlik tizimini izchil yo‘lga qo‘yishni davr taqozo qilmoqda

Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Oral Ataniyazova xalq deputatlari Qonliko‘l tumani Kengashining ikkinchi sessiyasida ishtirok etdi.

Tadbirda tuman Kengashi deputatlari, sektorlar rahbarlari, hokim o‘rinbosarlari, ichki ishlar idoralari xodimlari, ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Ta’kidlanganidek, bugungi kunda senatorlar va mahalliy Kengashlar deputatlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Ayni chog‘da “Mahalla yettiligi – Kengash – Senat” uch bo‘g‘inli hamkorlik tizimini izchil yo‘lga qo‘yishni davrning o‘zi taqozo qilmoqda. Negaki, bunday aloqalar pirovard natijada mamlakatimiz ravnaqi va aholining farovonligiga zamin yaratadi.

➡2

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

YURT TARAQQIYOTI, XALQIMIZ FAROVONLIGI YO‘LIDAGI ISLOHOTLARNING HUQUQIY ASOSI MUSTAHKAMLANADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda quyi palata Spikeri N. Ismoilov o‘tgan haftada mamlakatimiz hayotidagi muhim voqeliklarga to‘xtaldi. Prezidentimizning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlislaridagi nutqlarida bayon etilgan takliflar bo‘yicha fraksiyalar tomonidan o‘tkazilgan majlislarda bildirilgan fikr-mulohazalarning muhimligini alohida ta’kidladi.



Prezident mazkur nutqlarida hokimiyatning vakillik organlariga bo‘lib o‘tgan saylov jarayonlari sifatini yuqori baholab, siyosiy partiyalarning saylovoldi dasturlarida bayon etilgan qator tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaganini va siyosiy partiyalar fraksiyalari bu tashabbuslarni birinchi galdagi vazifalar sifatida belgilab, ularning o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini ta’minlashi zarurligini qayd etdi.

Spiker o‘z so‘zida ushbu nutqlar parlament ishini tashkil qilishda muhim dasturiy hujjat ekani, unda ilgari surilgan takliflar quyi palata faoliyati natijadorligini oshirishga yordam berishini aytib, deputatlarni bu borada yanada samarali ishlashga chaqirdi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 25-noyabrdagi “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirishga faol nuroniylarni jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori xususida ham so‘z yuritilib, ushbu hujjat nuroniylar vakillarining bilim va tajribasidan foydalanish orqali oilalarni kambag‘allikdan chiqarish tizimida yana bir ta’sirchan mexanizm yaratish uchun asos bo‘lgani ta’kidlandi. Deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyatida faol nuroniylardan iborat muhim hamkor paydo bo‘lgani, bu esa xalq vakillarining saylov okruglaridagi ishini yanada samarali yo‘lga qo‘yish, odamlarni bezovta qilayotgan muammolar to‘g‘risida to‘liq va haqqoniy axborot olishga imkoniyat yaratishi qayd etildi.

➡2

8-dekabr – O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

TASHQI SIYOSATIMIZDA INSONPARVARLIK TAMOYILI USTUVOR



Keyingi yillarda O‘zbekistonda olib borilayotgan izchil islohotlar bugun qanday samara berayotganini barchamiz ko‘rib-bilib turibmiz. Xususan, tashqi siyosatimizdagi ochiqlik tufayli, agar ta’bir joiz bo‘lsa, butun dunyo bizga qarab intilmoqda, o‘z navbatida, biz xalqaro tuzilmalarda bo‘ladimi yoki boshqa yirik tadbirlardami o‘z g‘oya va tashabbuslarimizni dadil ilgari surib kelyapmiz. Bu borada bizga Konstitutsiyamiz dasturilamal bo‘lmoqda, desak, ayni haqiqat. Negaki, ushbu hujjatda O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy nuqtalari aniq-tiniq qilib belgilab qo‘yilgan.

O‘z mazmuniga ko‘ra Konstitutsiya davlat mohiyatini ta’riflovchi, uning tashkiliy strukturasini ifodalovchi, davlat siyosati asoslarini belgilovchi hujjatdir.

Yodingizda bo‘lsa, Konstitutsiyamizning avvalgi tahriri 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston xalqining vakolatli vakillari bo‘lmish parlament a’zolari, ya’ni Oliy Kengash deputatlari tomonidan qabul qilingan bo‘lsa, bundan farqli o‘laroq 2023-yil 30-aprel sanasida mamlakatimiz Asosiy Qonunining yangi tahriri umumxalq referendumida – to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz berish yo‘li bilan qabul qilindi. Chunonchi, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining haqiqiy muallifi ham xalqning o‘zidir.

Bosh qomusimizning 1-moddasida mamlakatimizda davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish ekanligi qat’iy belgilandi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi. Inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlangani ham e’tiborga molik.

➡3

AHOLI SALOMATLIGI — MILLIY BARQARORLIKNING TARKIBIY QISMI

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 48-moddasida har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga egaligi, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli ekanligi belgilangan. Davlat sog‘liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug‘urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlash choralarini ko‘rishi, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi mustahkamlab qo‘yildi.

Darhaqiqat, aholiga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi qonunda belgilangan tartibda va davlat hisobidan ko‘rsatilishi aholi salomatligi uchun muhim ijtimoiy ko‘mak hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu yo‘nalishda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat hisobidan kafolatlangan tibbiy xizmatni rivojlantirish maqsadida birlamchi bo‘g‘inda aholini 100 dan ortiq turdagi dori vositalari bilan bepul ta’minlash yo‘lga qo‘yildi. Ixtisoslashtirilgan markazlarda esa bepul davolanadigan kasalliklar ro‘yxati shakllantirilib, tibbiy yordam uchun yo‘llanma elektron navbat asosida berilmoqda.

Alohida qayd etish joizki, inson salomatligi – bu milliy barqarorlikning asosiy tarkibiy qismi sanaladi. Mamlakatimiz rahbari ta’kidlaganidek, inson salomatligini muhofaza qilish millat hayotining uzluksizligini ta’minlash, uning genofondini asrash va mamlakatning barqaror taraqqiyotiga yo‘l ochuvchi muhim ustuvor yo‘nalishdir.

➡3

Fakt va raqamlar

Investitsiyalarni jalb qilish sur’ati oshmoqda

O‘tgan 10 oyda mamlakatimizga 26 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar kiritilgan. Bu o‘tgan yildagiga nisbatan 1,7 barobar ko‘p.

– Shundan qariyb 24 mlrd. dollari to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyalardir.

– Kiritilgan investitsiyalar hisobiga 6 300 ta korxona ishga tushirilgan. Ularda 30 trln. so‘mlik qo‘shilgan qiymat yaratilgan. Eksport 305 mln. dollarga oshgan.

Natijada 163 mingta yuqori daromadli ish o‘rni ochilgan.

– Noyabr-dekabr oylarida yana 8,6 mlrd. dollarlik investitsiya kiritilishi kutilmoqda.



www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 4-dekabr

Sana

MEHR, E’TIBOR VA G‘AMXO‘RLIK IFODASI

Mamlakatimizda har yili 3-dekabr Xalqaro nogironlar kuni sifatida keng nishonlanadi.

Mazkur sana munosabati bilan Oliy Majlis Senatining Fan,ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi a’zolari Toshkent shahridagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 103-maktab-internatda tashkil etilgan “Har bir bolaga mehr, e’tibor ulashaylik!” shiori ostidagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirda qatnashdi.

Qayd etilganidek, bu muassasada bugungi kunda aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan 288 o‘g‘il-qiz ta’lim-tarbiya olmoqda, shundan 51 nafar bola ota-ona qaramog‘idan mahrum o‘quvchilardir. Ularga 66 nafar o‘qituvchi hamda 30 nafar tarbiyachi ta’lim-tarbiya bermoqda.

O‘quvchilar kelajakda o‘z o‘rnini topishi, ijtimoiy hayotga moslashishi uchun ularni kasb-hunarga o‘rgatish maqsadida texnologiya fanlarini o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, bu yerda tarbiyalanuvchilar oshpazlik, duradgorlik, chilangarlik, tikuvchilik, to‘quvchilik, pazandalik, kosiblik va boshqa qator kasbga yo‘naltiriladi.

Tadbirda parlament yuqori palatasining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi B. Abdullayev so‘zga chiqib, nogironligi bo‘lgan shaxslar, jumladan, alohida ehtiyoji bor bolalarning ta’lim olishi hamda jamiyatga moslashishi uchun davlatimiz tomonidan barcha sharoit yaratib berilayotganligini alohida urg‘uladi. Ayni chog‘da o‘quvchilarga kasb-hunar egasi bo‘lib, kelajakda hayotda o‘z o‘rnini topishiga tilak bildirildi.

Tadbir davomida o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan bayram dasturi namoyish etildi.

O‘z navbatida, o‘quvchilarga esdalik sovg‘alari topshirildi.

HAR TUP NIHOL – YASHILLIK RAMZI

1 – Ko‘chat ekish an’anasining davom ettirilishi dunyoda iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish va suv taqchilligi shiddat bilan kechayotgan hozirgi paytda ekologik muhit barqarorligini ta’minlash, ona tabiatni asrab-avaylash, yashil hududlarni kengaytirish borasida muhim ahamiyatga ega, – dedi Senat qo‘mitasi raisi A. Eshmuratov. – Bunday tadbirlarda Senat a’zolari faol qatnashayotgani diqqatga sazovor. Negaki, bu yurtdoshlarimizga ijobiy ma’noda turtki beradi. Ayni chog‘da bugun ezgu niyat bilan qadalgan nihollar yurtimiz ravnaqiga, xalqimiz farovonligiga xizmat qiladi.

Senatorlar ishtirokidagi bunday ezgu tadbirlar boshqa hududlarda ham izchil davom etmoqda.

«MAHALLA YETTILIGI – KENGASH – SENAT»

1 Sessiyada yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq senatorlar nazorat tadbirlari va saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish chog‘ida qonunlarda aniqlangan muammolarni bartaraf etish yuzasidan aniq vakolatlarga ega ekanligi hamda bu borada Senatga qonunchilik taklifini kiritish huquqi berilgani ham alohida urg‘ulab o‘tildi.

Shularga mos ravishda endilikda Kengash so‘rovi va tekshiruvi singari yangi mexanizmlar orqali hududiy ijro organlari faoliyati ustidan nazorat kuchaytirilib, mahalliy Kengashlar tomonidan har yarim yilda qilingan ishlar bo‘yicha matbuot anjumanlari o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. Bu esa ularning faoliyatida oshkoralik va hisobdorlikni kuchaytirishda qo‘l keladi.

Senat esa mahalliy hokimlik organlari va Kengashlar hamjihatlikda faoliyat yuritishi, o‘zaro munosabatlarini izchil tashkil etishi uchun ularga yaqindan yordam beradi.

Sessiyadan so‘ng senator O. Ataniyazova Qonliko‘l tumanining Besko‘pir mahallasida bo‘lib, aholi vakillari bilan uchrashdi.

Muloqot davomida fuqarolarni qiynab kelayotgan toza ichimlik suvi va hududdagi ishsizlik masalasi, maktabgacha ta’lim muassasalari yetishmasligi hamda boshqa qator muammolar batafsil o‘rganildi.

Ma’lum qilinganidek, aniqlangan muammolar senatorning ish rejasiga kiritildi va ularga yechim topish yuzasidan aniq choralar ko‘riladi.

“Xalq so‘zi”.

YURT TARAQQIYOTI, XALQIMIZ FAROVONLIGI YO‘LIDAGI ISLOHOTLARNING HUQUQIY ASOSI MUSTAHKAMLANADI

1

Davlat byudjeti: deputatlar tashabbusi bilan muhim o‘zgartirishlar kiritildi

Majlisda “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, kelgusi yilga mo‘ljallangan Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasining ko‘rib chiqilishi o‘tgan yillardagiga nisbatan farq qildi. Prezidentimizning Oliy Majlis palatalaridagi nutqlarida strategik yo‘nalishlar, aniq vazifalar belgilab berilgani byudjet loyihasi muhokamalarini mazmunli o‘tkazishga, ko‘tarilgan masalalarning mohiyatiga chuqurroq kirishga imkon yaratdi. Qo‘mitalar tomonidan o‘tkazilgan yig‘ilishlar, siyosiy partiyalarning fraksiyalaridagi muhokamalarda deputatlar tomonidan 100 dan ortiq savollar, 10 dan ziyod konseptual ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar berilgani buning dalilidir.

Majlisda Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining daromadlari va xarajatlari, mahalliy byudjetlar va davlat maqsadli jamg‘armalariga oid loyihada ko‘zda tutilgan tadbirlar, ularni moliyalashtirish manbalariga oid ma’lumotlar chuqur tahlil qilinganligiga alohida e’tibor qaratildi.

Qonun loyihasiga mas’ul – Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlashda loyihaning tegishli moddalarida aks ettirilgan normalar Prezident Farmon va qarorlari hamda Hukumat qarorlari bilan uyg‘unligi va asoslantirilganligini o‘rgandi. Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda 2025-yilda belgilangan tadbirlarni moliyalashtirish masalalariga aniqlik kiritildi.

Qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida Hisob palatasining bergan xulosalari ham deputatlar diqqat markazida bo‘ldi. Xulosa yuzasidan deputatlar bildirgan fikr va mulohazalar hisobga olingan holda asoslantirilgan takliflarni Soliq va Byudjet kodekslarida aks ettirish masalasi o‘rganib chiqildi.

Shu bilan birga, qo‘mitalar va siyosiy partiyalar fraksiyalari yig‘ilishlarida qonun loyihasida vazirlik va idoralarga ajratilishi ko‘zda tutilgan byudjet mablag‘lari, ulardan foydalanish va natijadorlikni oshirish yuzasidan bildirilgan taklif va tavsiyalar birma-bir ko‘rib chiqildi va muhokama qilindi.

Dastlab kelgusi yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb e’lon qilinganligi munosabati bilan ushbu yo‘nalishlarga sarflanadigan mablag‘larning manzilliligiga va natijadorligiga e’tibor qaratildi. Shuningdek, sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat, sport va iqtisodiyot sohalari bo‘yicha muhokamalarda deputatlar tomonidan ko‘tarilgan masalalarga oydinlik kiritildi. Xususan, ayrim asosli takliflar byudjet va soliq tizimlarini takomillashtirish jarayonida inobatga olinadigan bo‘ldi.

Deputatlar bildirgan taklif va tavsiyalarni hisobga olgan holda qonun loyihasiga bir qancha konseptual ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Xususan, **O‘zLiDeP fraksiyasi** a’zolari bildirgan taklifga muvofiq og‘ir vaziyatga tushgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni aniqlash va yordam ko‘rsatish uchun Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondiga qo‘shimcha 35,5 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilishi belgilanmoqda.

“Milliy tiklanish” DP fraksiyasi a’zolarining takliflarini inobatga olgan holda kinematografiya sohasini yangi bosqichga ko‘tarish, buyuk



ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosini aks ettiruvchi “Tirik tarix” filmlar turkumini yaratish hamda badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ular tomonidan ko‘rsatilayotgan madaniy dasturlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish uchun qo‘shimcha 40 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilyapti.

“Adolat” SDP fraksiyasi a’zolari tomonidan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) institutining mamlakatimizda inson huquqlarini ta’minlash, zo‘ravonlik va nizolarning oldini olish kabi muhim vazifalarni o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirishi uchun moddiy-texnika bazasini yaxshilash bo‘yicha bergan takliflari asosli deb topilib, qo‘shimcha 3,1 mlrd. so‘m mablag‘ ajratiladigan bo‘ldi.

Bundan tashqari, **O‘zXDP fraksiyasi** tomonidan bildirilgan taklifga muvofiq respublikada milliy malaka tizimini rivojlantirish, mehnat bozori va ta’limning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash, malakaga bo‘lgan talablarni huquqiy va institutsional jihatdan tartibga solish maqsadida Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutini tashkil etish xarajatlari uchun qo‘shimcha 10,6 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilishi belgilandi.

Ekologik partiya fraksiyasi tomonidan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash, transchegaraviy garmsel shamollari va chang-qum bo‘ronlarining atrof-muhitga zararli ta’sirlarining oldini olish bo‘yicha bildirilgan taklif qanoatlantirilib, ushbu loyiha uchun qo‘shimcha 100 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilmoqda. Bundan tashqari, fraksiya a’zolarining taklifiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rmonchilik sohasi ilmiy-tajriba stansiyasini tashkil etish xarajatlari uchun qo‘shimcha 9,5 mlrd. so‘m mablag‘ ajratiladigan bo‘ldi.

Muhokamada ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha deputatlar ko‘targan masalalarga Hukumat tuzgan ishchi guruh hamda tegishli vazirlik va idoralar mas’ul xodimlari tomonidan oydinlik kiritildi.

Deputatlar subsidiyalar va uning natijadorligi, byudjet ochiqligini ta’minlash, byudjet mablag‘lari ustidan moliyaviy nazorat tizimlarini takomillashtirish hamda tibbiy sug‘urtani joriy qilish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar bildirishdi.

Taklif etilayotgan qonun loyihasida byudjet taqchilligi cheklangan miqdorining oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan qo‘shimcha xarajatlarni amalga oshirishda qonun talablariga qat’iy rioya qilish, davlat tashqi qarzining va davlatning shartli majburiyatlari bo‘yicha loyihada belgilangan chegaradan oshib ketmaslik yuzasidan hukumatning o‘z zimmasiga olayotgan majburiyatlari deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Majlisda qonun loyihasi qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Kelgusi yilda soliq stavkalarida qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?

Majlisda ko‘rib chiqilgan navbatdagi hujjat – “Soliq va byudjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi bo‘ldi.

2025-yilda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlik uchun keng shart-sharoitlarni ta’minlash soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Shuningdek, milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilishi talab etiladi. Bundan tashqari, Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlar bilan “Ochiq muloqot” doirasida biznes yuritishni yengillashtirish borasida dolzarb vazifalar belgilab berilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qonun loyihasida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, ularga qulay sharoitlar yaratish maqsadida quyidagilar nazarda tutilmoqda. Xususan:

– kelgusi yilda asosiy soliq turlari, jumladan, foyda solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, ijtimoiy soliq, aylanmadan olinadigan soliq, qo‘shilgan qiymat solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq turlari bo‘yicha stavkalar o‘zgarishsiz qoldirilmoqda;

– mobil aloqa xizmatlari sohasiga investitsiyalar miqdorini ko‘paytirish, mobil aloqa va internet xizmati sifatini oshirish maqsadida mobil aloqa operatorlari uchun aksiz solig‘i bekor qilinmoqda;

– mahalliy byudjetlar daromadini oshirish, ish o‘rinlarini legallashtirish hamda soliq bo‘yicha xalq deputatlari mahalliy Kengashlar vakolatlarini oshirish maqsadida ularga yakka tartibdagi tadbirkorlarning qat’iy belgilangan miqdorlardagi stavkalarini faoliyat turi va joylashgan hududiga qarab belgilash vakolati berilmoqda;

– yakka tartibdagi tadbirkorlarning yollagan xodimlari uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i yoki o‘zlari uchun belgilangan qat’iy soliqning 50 foizini to‘lash huquqini berish hamda bozor va savdo majmualarida faoliyat yuritayotgan yakka tadbirkorlarning yollagan xodimlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini pasaytirish kabi normalar kiritilmoqda.

Biznes uchun soliq stavkalari o‘zgarishsiz saqlab qolinayotgani investitsiyaviy muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, tadbirkorlarning yanada rivojlanishiga xizmat qilishi deputatlar tomonidan e’tirof etildi.

Muhokamada xalq vakillari mahalliy Kengashlar vakolatlarini kengaytirish bo‘yicha o‘z munosabatlarini bildirdi. Xususan, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq stavkalarini mahalliy Kengashlar tomonidan belgilash, suv solig‘i stavkasiga hamda noruda qurilish materiallari uchun qat’iy belgilangan stavkalarga koeffitsiyent qo‘llash va nashriyot-matbaa korxonalarini foyda solig‘idan ozod qilishga oid normalar ma’qullandi.



Shuningdek, Jahon savdo tashkiloti talablariga qonunchiligimizni uyg‘unlashtirish, atrof-muhitni asrash, soliq ma’murchiligini takomillashtirish orqali soliq bazasini yanada kengaytirishga qaratilgan choralar qo‘llab-quvvatlandi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Ayrim talablar bekor qilinishi mumkin

“O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda konseptual jihatdan ko‘rib chiqildi.

Ma’lumki, respublikamizda shaharlar tobora kengayib borishi natijasida tumanlar hududidagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlari shaharlar va shaharchalarning ma’muriy chegaralariga o‘tib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, shaharlar va shaharchalarning ma’muriy chegarasida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlari mavjud korxonalar tomonidan to‘lanadigan yer solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibini takomillashtirishni taqozo etyapti.

Ushbu qonun loyihasi bilan Soliq kodeksiga shaharlarning ma’muriy chegaralarida joylashgan tumanlarida qishloq xo‘jaligi yerlari uchun yer solig‘ini 2 baravar ko‘p miqdorda to‘lash talabini bekor qilishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish kiritilmoqda.

Xalq vakillarining fikricha, qonun loyihasi shahar va shaharchalarning ma’muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini yanada yaxshilash, ularga qulay shart-sharoit yaratishga keng yo‘l ochadi. Qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o‘qishda qabul qilindi.

Majlisda, shuningdek, joriy yilda amalga oshirilayotgan davlat dasturlari, loyiha va tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta’minlash maqsadida qo‘shimcha xarajatlar manbalarini aniqlashtirish zaruratidan kelib chiqib, Qonunchilik palatasiga kiritilgan “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qonun loyihasi ham ko‘rib chiqildi va deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Sudyalarning o‘zini o‘zi boshqarish tamoyili joriy etiladi

Majlisda sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o‘qishda muhokama qilindi.

Sud hokimiyati mustaqilligini ta’minlash maqsadida mamlakatimizda bosqichma-bosqich olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda, ayni vaqtda sudyalarning o‘zini o‘zi boshqarish tamoyilini sudlar faoliyatiga keng joriy etish zarurati mavjud.

Amaldagi tartibga ko‘ra Oliy sud raislarining o‘rinbosarlari – tegishli sudlov hay’atlari raislari lavozimiga aniq yo‘nalish (ma’muriy, fuqarolik, jinoyat va iqtisodiy) bo‘yicha saylanishi belgilangan. Oliy sud sudyalariga nisbatan esa aniq yo‘nalish bo‘yicha saylanish tartibi joriy qilinmagan. Bu esa sudyalarning o‘zini o‘zi boshqarish tamoyilini keng joriy etishga to‘sqinlik qilib, Oliy sud raisi o‘rinbosarlarini bir sudlov yo‘nalishidan boshqa bir sudlov yo‘nalishiga o‘tkazish (rotatsiya qilish) imkonini bermaydi.

Shu munosabat bilan, qonun loyihasida “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 19-moddasiga Oliy sud tarkibining sudlov hay’atlari raislari bilan bog‘liq o‘zgartirish kiritish nazarda tutilmoqda.

Qayd etilganidek, mazkur qonun loyihasi sudlar faoliyati samaradorligini oshirish, odil sudlov sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Shaxs huquq va erkinliklarining sud orqali himoyasi yanada kuchaytiriladi

“Sudlarning faoliyatiga oid konstitutsiyaviy kafolatlar kuchaytirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda konseptual jihatdan ko‘rib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilayotgan o‘zgartirishga ko‘ra Sudyalar oliy kengashi tarkibi, shu jumladan, kengash raisi, rais o‘rinbosari, uning a’zolari va kotibi Prezident taqdimiga binoan Oliy Majlis Senati tomonidan saylanishi, shuningdek, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Sudyalar oliy kengashining raisi, rais o‘rinbosari etib saylanishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilmoqda.

“Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilayotgan qo‘shimchaga binoan odil sudlov faqat sudlar tomonidan amalga oshirilishi belgilanyapti. Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari nafaqat barcha davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar, balki fuqarolik jamiyati institutlari uchun ham majburiy hisoblanmoqda.

Shuningdek, shaxslarning nafaqat davlat organlari, balki boshqa tashkilotlarning ham qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi mustahkamlanmoqda. Bundan tashqari, “aybsizlik prezumpsiyasi” va “Xabeas korpus” institutini yanada qaror toptirishga oid qoidalar kiritilyapti.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

O‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi shartnoma ratifikatsiya qilinadi

Majlisda “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Malayziya Hukumati o‘rtasida jinoiy ishlar bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi shartnomani (Toshkent, 2023-yil 8-iyun) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun loyihasi ham muhokama markazida bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Malayziya Hukumati o‘rtasida jinoiy ishlar bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risida imzolangan ushbu shartnoma Toshkent shahrida ikki davlat Bosh prokurorlari darajasida imzolangan.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish har bir davlat oldidagi qonun ustuvorligini ta’minlash borasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayrim jinoyat ishlari bo‘yicha tergov va protsessual harakatlarni amalga oshirish boshqa davlatning huquqni muhofaza etuvchi organlari bilan hamkorlikda ishlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ratifikatsiya qilish taklif etilayotgan mazkur shartnoma ham aynan shu maqsadga qaratilgan.

Shartnomada jinoiy ta’qib etish, jinoyat ishini tergov qilish, ishni sudda ko‘rish, shaxsni javobgarlikka tortish, shuningdek, jinoiy daromadlar va jinoyat qurollarini aniqlash, olib qo‘yish, musodara etish, jinoiy qilmish oqibatida yetkazilgan moddiy zararning o‘rnini qoplash kabi protsessual harakatlar bo‘yicha huquqiy yordam ko‘rsatish belgilanmoqda.

Shuningdek, ushbu shartnoma ekstraditsiya qilish maqsadida shaxsni ushlab turish yoki qamoqqa olish, ozodlikdan mahrum etilgan shaxsni jazoni o‘tash uchun o‘tkazish, jinoyat ishi yurituvini o‘tkazish, bir taraf chiqargan sud hukmini boshqa taraf tomonidan ijro qilish masalalariga tatbiq etilmaydi.

Aytilganidek, mazkur shartnomaning imzolanishi ikki davlat huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari tomonidan jinoyat ishlari bo‘yicha tergov olib borish va sudda ko‘rish davomida o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatishning huquqiy asoslarini belgilashga, jinoyatchilikka qarshi kurashishda birdamlik va hamkorlikni oshirishga, bu orqali har ikki davlatda odil sudlovni ta’minlashga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

“Xalq so‘zi”.

N. ISMOILOV,
Qonunchilik palatasi Spikeri:

“Prezidentimiz bizni doimo Davlat byudjetining “tejamkor va barqaror” bo‘lishini ta’minlashga chaqiradi. Shu sababli rejalashtirilayotgan davlat xarajatlarini maqbullashtirish yuzasidan muhim ishlar amalga oshirilyapti. Ortiqcha moliyaviy mablag‘lar ajratilishi hollariga chek qo‘yilmoqda. Rejalashtirilayotgan daromadlarning tarkibi, ularning milliy va jahon iqtisodiyotidagi turli salbiy omillarga nisbatan bardoshliligi batafsil o‘rganilmoqda. Hukumat “xalqning har bir so‘mi”ni samarali tarzda sarf etish vazifasini amalga oshirishi, parlament esa buning ustidan samarali va ta’sirchan nazoratni ta’minlashi kerak”.

So‘nggi besh yilda mamlakatimizda Turkiya sarmoyasi ishtirokidagi qo‘shma korxonalar soni 1903 taga yetdi.

TASHQI SIYOSATIMIZDA INSONPARVARLIK TAMOYILI USTUVOR



1 Avvalgi “davlat – jamiyat – inson” tamoyili “inson – jamiyat – davlat” sifatida o‘zgartirilishidan ham ko‘rish mumkinki, odam sha’ni, huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini ta’minlash, uning manfaatini har narsadan ustun qo‘yish asosiy maqsad qilingan.

Konstitutsiya inson huquqlari va erkinliklariga doir yangi normalar bilan to‘ldirilgan bo‘lib, ularning tan olinishi va ta’minlanishi hamda muhofaza qilinishi davlatning asosiy majburiyati sifatida belgilangan. Bu bejiz emas. Zero, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarimiz markazida inson qadrini ulug‘lashga yo‘naltirilgan ezgu maqsadlar turibdi. Har bir kishi munosib sharoitda ta’lim-tarbiya olib, farovon hayot kechirgan taqdirdagina, jamiyat va davlat uyg‘unlikda barqaror rivojlanadi.

Yangi tahrirda davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlariga doir normalar 3 barobar ko‘paytirilgani ham diqqatga sazovor.

Asosiy Qonunimizdagi insonparvarlik tamoyillari haqida bejiz keng to‘xtalayotganimiz yo‘q. Zero, unda belgilangan O‘zbekiston tashqi siyosatida ham insonparvarlik g‘oyalari ustuvorlik qiladi.

Jumladan, uning asosiy prinsiplar bo‘limida tashqi siyosat haqida alohida modda kiritilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti ekanligi belgilab qo‘yilgan. Ayni chog‘da mamlakatimiz tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralar buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi, deb keltirilgan.

Shuni aytish lozimki, O‘zbekiston tashqi siyosatining asoslari inson huquq va erkinliklarini hurmat qilishga yo‘naltirilgani bilan ajralib turadi. Buni tashqi siyosatimiz prinsiplari asosida barcha davlatlar bilan do‘stona aloqalar olib borilayotgani misolida ham ko‘rish mumkin. Zotan, shu birgina do‘stona munosabatlarning mohiyatiga insonni, uning sha’ni, qadr-qimmatini ulug‘lash bilan bog‘liq barcha qadriyatlar singib ketgan.

Yangi O‘zbekistonning tashqi siyosati xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillarini o‘zida mujassam qilgani holda xalqaro huquq-ning davlatlar tashqi siyosatining zaruriy mezonlarini ham o‘zida ifodalagan. Shundan kelib chiqib, yurtimiz barcha davlatlar, eng avvalo, o‘zining yaqin qo‘shnilari bilan tinchlikparvar va do‘stona siyosat olib bormoqda. Bizning o‘zaro manfaatli, ochiq va pragmatik tashqi siyosatimiz, pirovard natijada nafaqat mamlakatimiz, balki butun mintaqamizda tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik hamda inson huquq va manfaatlarining kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.

Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi a’zosi.

AHOLI SALOMATLIGI – MILLIY BARQARORLIKNING TARKIBIY QISMI

1 Shu bois mamlakatimizda tibbiyot tizimi kengayib, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanmoqda, noyob jarrohlik amaliyotlari mahalliy shifokorlar tomonidan muvaffaqiyatli bajarilmoqda. O‘tgan davrda davlat tomonidan sog‘liqni saqlash sohasiga ajratilgan mablag‘lar miqdori ortib, 2024-yilda 34 trln. so‘mga yetgan bo‘lsa, 2025-yilda bu raqam 40 trln. so‘mdan oshishi prognoz qilinyapti.

Sog‘liqni saqlash tizimida bunday investitsiyalar tibbiy xizmatlarning sifatini yaxshilash, ularning ommabopligini oshirish va tibbiy sug‘urta tizimini joriy etish kabi vazifalarga yo‘naltirilyapti. Bu, o‘z navbatida, tibbiyot sohasida davlat va nodavlat tibbiyot muassasalarida ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishga va samaradorligi ortishiga hissa qo‘shadi.

2023-yilda kafolatlangan tibbiy xizmatlar ro‘yxati qayta ko‘rib chiqilib, tasdiqlandi. Ushbu ro‘yxatga 500 tadan ortiq tashxislar, 20 tadan ziyod diagnostik tekshiruvlar, 40 tadan oshiq laborator tahlillar, 230 dan ko‘p turdagi dori vositalari hamda 70 dan ortiq tibbiy buyumlar kiritilgan bo‘lib, ular aholiga davlat hisobidan bepul taqdim etilmoqda.

Birlamchi tibbiy-sanitariya xizmati, shoshilinch tez yordam, statsionar va ambulator ko‘mak kabi asosiy xizmatlar esa aholiga ommabop bo‘lib, bu davlat tomonidan inson salomatligiga qaratilgan eng katta e’tibordan dalolat beradi.

Ahamiyatlisi, tibbiyot tizimidagi faol islohotlar natijasida tez tibbiy yordam shoxobchalari, oilaviy shifokor punktlari va ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari soni keskin ortishi bilan birga, diagnostika va davolash usullari respublikadan tuman darajasigacha yetkazildi. Bu o‘zgarishlar mamlakat aholisining salomatligini yaxshilashda hal qiluvchi qadam bo‘ldi.

Sir emaski, sog‘liqni muhofaza etish nafaqat fuqarolarning shaxsiy hayotida, balki mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligida ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, davlat tomonidan tibbiyot sohasiga ajratilgan mablag‘lar va tibbiy xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar orqali nafaqat shifokorlar malakasi, balki tibbiy muassasalarning moddiy-texnika bazasi sezilarli darajada yaxshilandi.

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat va xususiy tibbiyot muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususiy tibbiyotning rivojlanishi davlat va xususiy sektor o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirib, aholiga zamonaviy va sifatli tibbiy xizmatlarni taqdim etish imkoniyatini bermoqda. Ayniqsa, xususiy tibbiyot muassasalarining soni yildan-yilga ortib, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanayotgani, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlangani aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishda asqatayotir. Eng asosiysi, bu mamlakatimiz tibbiyotining raqobatbardoshligini oshirishga yordam beryapti.

Bilamizki, tibbiy sug‘urta tizimining joriy etilishi aholining sog‘liqni muhofaza qilishga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi. 2025-yildan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlarida bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yiladigan sug‘urta mexanizmlari tibbiy xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqadi, desak, yanglishmaymiz. Asosiysi, bu tizim fuqarolarga davlat yoki xususiy tibbiyot muassasalarini erkin tanlash imkoniyatini taqdim etib, aholi salomatligini yaxshilashga ham katta hissa qo‘shadi.

Mamlakatda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish masalasi ham davlat siyosatining ajralmas qismiga aylangan. Chunki sog‘lom turmush tarzi – bu insonning hayot salomatligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ko‘nikmalar asosida o‘z faoliyatini tashkil etishidir. Bunda shaxsiy gigiyenaga amal qilish, jismoniy faollik, zararli odatlardan voz kechish, sog‘lom ovqatlanish va tibbiy madaniyatga rioya etish asosiy omillar hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun barcha sharoitni yaratib, aholi salomatligini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni samarali ro‘yobga chiqarmoqda. Bu o‘zgarishlar nafaqat aholi hayot sifatini yaxshilaydi, balki yurtimizda barqarorlik va milliy rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi.

Inson salomatligiga qaratilgan bunday keng ko‘lamli islohotlar yangi O‘zbekistonning insonparvar siyosatini aks ettiradi. Davlatning mazkur sohadagi islohotlari har bir fuqaroning farovon hayotini ta’minlashga qaratilgan. Bu esa, o‘z navbatida, barqaror va sog‘lom kelajak poydevorini yaratish yo‘lidagi eng muhim qadamdir.

Sog‘liqni saqlash tizimida amalga



oshirilayotgan islohotlarning yana bir muhim jihati – sanitariya-epidemiologik barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar, desak, ayni haqiqat. Shu ma’noda, ommaviy kasalliklarning oldini olish, profilaktik chora-tadbirlarni va zamonaviy epidemiologik tahlil vositalarini keng joriy qilish orqali bu yo‘nalishda salmoqli natijalarga erishilmoqda.

Shu bilan birga, davlat tomonidan tibbiy xizmatlarning adolatli va teng taqsimlanishiga alohida ahamiyat qaratilyapti. Shahar va qishloq hududlarida tibbiy muassasalarni barpo etish, ularni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash orqali aholining har bir qatlamiga tibbiy xizmatlardan to‘liq foydalanish imkoniyati yaratilayotir.

Sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar kelajak avlodlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Millat salomatligini ta’minlash, uning genofondini asrash va barqaror taraqqiyot yo‘lida qo‘yilayotgan bu qadamlar O‘zbekistonning insonparvar va zamonaviy davlat sifatidagi nufuzini yanada mustahkamlaydi.

Davlat har bir fuqaro salomatligini o‘zining asosiy boyligi sifatida ko‘radi. Shundan kelib chiqib, ushbu yo‘nalishdagi islohotlar yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Ezgu va aniq maqsadga yo‘naltirilgan amaliy sa’y-harakatlar O‘zbekistonning inson qadrini ulug‘lovchi siyosatining amaliy ifodasidir. Ularning hayotga samarali tatbiq etilayotgani xalqimiz salomatligini kafolatlash bilan birga, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Jamol ACHILOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi raisi o‘rinbosari.

YANGILIKLAR *xabarlar*

TAFSILOTLAR

Noqonuniy migratsiyaga qarshi birgalikda kurashiladi

Bosh prokuraturada BMTning Giyohvandlik moddalari va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasining Afg‘oniston, Markaziy Osiyo, Eron va Pokiston bo‘yicha Mintaqaviy vakolatxonasi bilan hamkorlikda “Migrantlarni noqonuniy tashishga qarshi kurashish borasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish” mavzuida davra suhbati tashkil etildi.



Unda ishtirokchilar noqonuniy migratsiya masalalarini muhokama qilishdi. Shuningdek, milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotidagi ayrim kamchiliklar qayd etildi.

Xalqaro standartlarni hisobga olgan holda ushbu muammolarga yechim topish imkonini beruvchi takliflarga alohida e’tibor qaratildi.

Mahsulotlarimiz xorijliklar e’tiborida

Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida qurilish materiallari, infratuzilma, urbanizatsiya hamda elektrotexnika sohalari bo‘yicha “Big 5 Global” xalqaro ko‘rgazmasi o‘tkazildi.



“Dunyo” axborot agentligi xabariga ko‘ra, ushbu nufuzli ko‘rgazma maydonida tegishli vazirlik va idoralar hamkorligida O‘zbekiston milliy stendi tashkil etilib, unda 15 dan ortiq milliy elektrotexnika sanoati korxonalari “Made in Uzbekistan” brendi ostidagi mahsulotlarini namoyish qildi.

Ilk bor taqdim etilgan O‘zbekiston mahsulotlarining yuqori sifati va raqobatdoshligi xorijlik hamkorlarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Yangi korxona – yangi ish o‘rni

Toshkent viloyatidagi “Chirchiq Texnoparki” hududida joylashgan “Himplast Corp” MCHJ QK tomonidan kimyoviy suyuqliklar, gaz chiqindilari uchun termoplastik va stekloplastikdan idish mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxona ishga tushirildi.



Mazkur loyihaga 1,4 million AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb etildi.

E’tiborlisi, korxonaning faoliyat boshlashi natijasida 80 dan ziyod yangi ish o‘rinlari yaratildi. Bu esa nafaqat hudud iqtisodiyoti ravnaqida, balki aholi bandligini ta’minlashda ham ahamiyatlidir.

“Xalq so‘zi”.





Qulaylik

Toshkent – Xojikent:

elektropoyezd tezyurar rejimda harakatlanadi

Shu yilning 3-dekabridan boshlab Toshkent va Xojikent o‘rtasida yangi tezyurar elektropoyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yildi.

“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ matbuot xizmati xabariga ko‘ra, ushbu tezyurar poyezdlarda yo‘lovchilar uchun barcha qulaylik muhayyo etilgan – yuqori tezlik va zamonaviy jihozlarga ega.

Endilikda Toshkent – Xojikent – Toshkent yo‘nalishidagi tezyurar elektropoyezdlari belgilangan jadval asosida harakatlanadi.

Kelgusida bu yo‘nalish uchun yana 10 ta elektropoyezd xarid qilish rejalashtirilgan.

“Xalq so‘zi”.

Chiroqchida “Polvonlar bog‘i”

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Chiroqchi tumanining Zarbdor mahallasidagi 5 gektar maydonda “Polvonlar bog‘i” tashkil etildi.



Tashabbus

E’tiborli tomoni shundaki, bu tashabbus hudud ahlining o‘zidan chiqdi. Bog‘ tashkil etilishiga kirishilishidan avval Zarbdor va Istiqlol mahallalaridagi tadbirkorlar, saxovatpesha insonlar ko‘magi bilan 18 ta ehtiyojmand oila farzandlarining sunnat to‘ylari o‘tkazib berildi. Shu munosabat bilan milliy kurash musobaqasi ham bo‘lib o‘tdi.

Yakunda katta hashar uyushtirilib, “Polvonlar bog‘i”ga 5 ming tupdan ziyod mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari ekildi.

– Hasharda uch avlod polvonlar ishtirok etdi, – deydi chiroqchilik mashhur polvon, ikki karra jahon chempioni, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustozi Abdurashid bobo Mirzayev. – Bu, ayniqsa, yosh polvonlarimiz uchun ham ibratli ish bo‘ldi, deb o‘ylayman. Mazkur bog‘ kelajakda hudud ahlining milliy kurashimizga bo‘lgan mehri, e’tibori timsoliga aylanishiga ishonchimiz komil.

Jahongir BOYMURODOV (“Xalq so‘zi”).

O‘zbekistonda tibbiyot sohasi:

TRANSFORMATSIYA JARAYONLARIDA TURKIYALIK MUTAXASSISLAR KO‘MAKLASHADI

Mamlakatimiz tibbiyotida keng ko‘lamli transformatsiya jarayonlari davom etmoqda. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan sog‘liqni saqlash tizimi mutasaddilari oldiga tegishli vazifalar qo‘yilgan.

Hamkorlik

Xususan, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish – eng asosiy talablardan biri. Buning uchun esa, avvalo, xalqaro tajribani chuqur o‘rganish va amaliyotga samarali tatbiq qilish talab etiladi.

Sog‘liqni saqlash vazirligi matbuot xizmati xabariga ko‘ra, ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan vazirlik tomonidan turkiyalik mutaxassislar guruhi jalb qilindi.

Hozir xorijlik ekspertlar yurtimiz vakillari bilan hamkorlikda barcha bo‘g‘indagi tibbiyot muassasalarida o‘rganishlar olib bormoqda. Shu maqsadda tuzilgan ishchi guruhlar tasdiqlangan reja asosida hududlarda bo‘lyapti.

Turkiyalik mutaxassislar yettita yo‘nalish – birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini takomillashtirish, tibbiy sug‘urta tizimini joriy etish va tizimni raqamlashtirish, shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish, tibbiy xizmatlarni rejalashtirish, farmatsevtikani rivojlantirish hamda dori vositalari ta’minoti, tibbiy asbob-uskunalar samaradorligini oshirish, shoshilinch va tez tibbiy yordamni rivojlantirish bo‘yicha ish olib bormoqda.

Turkiyadan taklif etilgan mutaxassislar soni ham yetti nafar. Ular yuqoridagi yetti yo‘nalish bo‘yicha katta xalqaro tajriba va malakaga ega ekspertlar. Har biri tegishli yo‘nalish bo‘yicha mas’ul etib belgilangan.

Jumladan, guruh rahbari Hasan Chagil 2003 – 2013-yillarda Turkiya tibbiyotini transformatsiyalashda bevosita qatnashib, asosiy yo‘nalishlarga boshchilik qilgan. Natijada qisqa muddatda mamlakat tibbiyoti 2000-yillar boshidagi ahvoli og‘ir sohadan rivojlangan tizimga aylandi. Qolaversa, ushbu mutaxassisning xalqaro darajadagi ekspertlik faoliyati ham e’tiborga molik. U 2016-yildan Osiyo va Yevropaning bir qator Sog‘liqni saqlash vazirliklarida tibbiyotning qator yo‘nalishlari bo‘yicha maslahatchilik faoliyatini davom ettirgan.

Ayni paytda doktor Hasan Chagil O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimini transformatsiya qilishga ko‘maklashish maqsadida tibbiy sug‘urta tizimini joriy etish yo‘nalishi bo‘yicha ish olib boryapti.

Shu bilan birga, turkiyalik ekspertlar safida tibbiyot sohasida katta ilmiy salohiyat hamda amaliy tajribaga ega Mehmet Ugurlu, Talgan Kyuchyuk, Muhammet Yornek, Mehmet Ersoy, Hasan Bagdji va Mehmet Avdji ham bor.

Ayni paytda ular hududlarda bo‘lib, sog‘liqni saqlash muassasalari faoliyatini chuqur o‘rgangan holda uni yanada rivojlantirish borasida o‘z tavsiyalarini berishmoqda.

Kelgusida ana shu tahlil, taklif va tavsiyalar umumlashtirilib, sog‘liqni saqlash tizimining bosqichma-bosqich islohotiga oid qisqa, o‘rta hamda uzoq muddatli “yo‘l xaritalari” ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

“Xalq so‘zi”.

Poytaxtimizda O‘zbekistonda ekologik va iqlim o‘zgarishiga chidamli shaharlarni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro forum bo‘lib o‘tdi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 4-dekabr



Muzrabotlik «OSHIN MOMO»

Muzrabot tumanidagi Fidokor mahallasida istiqomat qiluvchi Oybahor Jabborova qariyb yarim asrdan buyon sholichilik bilan shug‘ullanadi. Bu borada o‘ziga xos maktab yaratgan fermer birgina sholining o‘zidan yiliga 1 milliard so‘mdan ziyod daromad topadi. Halol mehnati orqali shuhrat qozongan ayolni hamqishloqlari “Oshin momo” deb chaqiradi.

Ibrat

Surxondaryo zamini qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining har qanday turini yetishtirish uchun qulay, bu yerda pishib yetilgan meva, sabzavotlar, don va dukkakli o‘simliklar o‘zining mazasi, to‘yimliligi bilan mashhur. Ayniqsa, vohada yetishtirilgan sholi boshoqlari bo‘liq va guruchi shirali bo‘lishi bilan ajralib turadi.

– Guruchning sifatli va to‘yimliligi maysalarning quyosh taftidan bahra olib, ma’danlarga boy obihayotga to‘yinib o‘sganiga bog‘liq, – deydi Oybahor Jabborova. – Mamlakatimiz janubida joylashgan hududimizda guruch qadimdan yetishtiriladi. Sholichilik ota-bobolarimizdan meros. Afsuski, uzoq yillar viloyatimizda sholi yetishtirish e’tibordan chetda qoldi, sholi maydonlari qisqarib ketdi. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 15-avgustdagi “Sholi yetishtiruvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori sholichilikni yangi bosqichga ko‘tardi.

Hamqishloqlari 70 yoshli Oybahor ayani bejiz “Oshin momo” deb atamaydi. Tinib-tinchimagan fermer quyosh ufqqa



ko‘tarilmasdan uyidan 25 chaqirim naridagi dalasiga oshiqadi. Axir ayol boshi bilan 200 gektar yerni eplashning o‘zi bo‘lmaydi-da!

– Fermer xarajat qilmasa, daromad ko‘rmaydi. Zahmat chekmasa, foyda olmaydi, – deydi Oybahor aya. – Kechalari bilan dalamni o‘ylab chiqaman. Yangi rejalar tuzaman. Tongda dalaga oshiqaman. Xo‘jaligimizda o‘ttizdan ortiq ishchilar mehnat qiladi. Ularning ham ro‘zg‘ori but bo‘lishi, orzu-havaslari ro‘yobga chiqishiga mas’ulman. Bir mavsumda ham g‘alladan, ham sholidan mo‘l hosil olamiz. Buning o‘ziga yarasha siri bor. Masalan, gektariga 250 kilogramm urug‘lik don sepilishi kerak bo‘lgan joyga 300 kilogramm, sholida 320 kilogramm urug‘ qadaymiz. Dorilashda ham shunday yo‘l tutamiz. Ortiqcha urug‘ va dorilarni shaxsiy jamg‘armamiz hisobidan xarid qilamiz. Har mavsumda rejadan ortgan 150 – 200 tonna g‘alla uyimizga kiradi. Sholichilikdan yillik daromadimiz 1 milliard so‘mdan ortadi.

Darhaqiqat, vohada sholi yetishtirish dehqonchilikning eng qadimgi turlaridan biri bo‘lgan. Jumladan, qadimshunoslar Amudaryoning shimoliy qirg‘oqlarida olib borgan arxeologik qazishmalari chog‘ida topgan guruch qoldiqlari eramizdan avvalgi 236 – 194-yillarga to‘g‘ri keladi. Bu dunyoda sholi yetishtirishning ilk boshlanish davri sifatida qayd etilgan.

Fermer ayolning bu borada boshqalarga ibrat bo‘ladigan o‘z tajribasi bor. Hurmati uning himmatida! O‘zi otaliqqa olgan oilalardan, ehtiyojmandlardan ko‘magini ayamaydi. “Berganga Xudo beradi” degan hikmat uning hayotiy shiori.

Farhod ESONOV
(“Xalq so‘zi”).

Omilkorlik



To‘rt faslda ham qiyg‘os gullaydi

Farg‘ona shahridagi mahallalarda aholi tomorqalaridan unumli foydalanish, bu borada istiqbolli va intensiv loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha salmoqli natijalarga erishilmoqda.







Buning samarasida mahallalar gulchilik, sitrus mevalar, qo‘ziqorin, turli ko‘kat va sabzavotlar yetishtirishga ixtisoslashtirilib, oilalar qo‘shimcha daromad manbaiga ega bo‘lyapti. Issiqxonalarda esa yilning to‘rt faslida ham mahsulot yetishtirish imkoniyati yaratildi.

Masalan, “Xo‘jamag‘iz” MFY sabzavotchilik, chorvachilik, ko‘kat va ziravorlar yetishtirishda ilg‘or hudud hisoblanadi. Keyingi yillarda ushbu mahalladagi xonadonlarda bir va ko‘p yillik gullarni parvarishlash tobora ommalashib borayotir.

– Issiqxonada gul yetishtirishning ham o‘z zavqi bor, – deydi “Xo‘jamag‘iz” MFYning Ulug‘vor ko‘chasidagi xonadonda istiqomat qiluvchi Ulug‘bek Toshtemirov. – Oilamiz bilan 25 sotixlik issiqxonada 20 turdan ortiq gullar parvarishi bilan shug‘ullanamiz. Bu gullarning aksariyati xorijdan keltirilgan bo‘lib, yilning to‘rt faslida ham ochiladi. Shu bois ularning xaridori ko‘p, bu faoliyat ortidan oilamiz daromadi ham yildan-yilga yaxshilanmoqda. Gullar viloyatlarga, qo‘shni respublikalarga yetkazib berilmoqda.

Botir MADIYOROV
(“Xalq so‘zi”).

Taraddud

MAXSUS AVTOTRANSPORT VOSITALARI XARID QILINDI

Kuz-qish mavsumini betalafot o‘tkazish maqsadida tegishli vazirlik hamda tashkilotlar tomonidan zarur choralar ko‘rilmoqda.



Xususan, “Hududgazta’minot” AJ tomonidan avariya brigadalari, maxsus transport vositalari va zaruriy materiallar zaxiralari shay holatga keltirildi.

Hududiy filiallarda xizmat ko‘rsatish sifatini yanada yaxshilash maqsadida 23 dona “Gazel” yuk avtotransport vositasi xarid qilindi. Mazkur transport vositalari “Hududgaz Poytaxt” hamda “Hududgaz Qoraqalpog‘iston” gaz ta’minoti filiallariga taqsimlab berildi.

Anjuman

«INKLYUZIV TA’LIMDAN – INKLYUZIV JAMIYATGA»

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi tomonidan “Inklyuziv ta’limdan – inklyuziv jamiyatga” mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.



Anjuman doirasida maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi inklyuziv ta’lim ishtirokchilari, jumladan, umumta’lim maktablari o‘qituvchilari, mas’ul mutaxassislar malakasini oshirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini xorijiy hamda mahalliy ilg‘or tajribalar asosida takomillashtirish kabi masalalar muhokama qilindi.

Loyiha

NAVBATDAGI MAVSUM G‘OLIBIGA ELEKTROMOBIL BERILADI

Mamlakatimizda “Bir million o‘zbek dasturchisi” loyihasining navbatdagi mavsumiga start berildi.



Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi xabariga ko‘ra, ushbu loyiha doirasida yuqori natija ko‘rsatgan eng yaxshi 2 ta maktabga Prezident sovg‘asi sifatida elektromobillar berilishi rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, loyiha doirasida 14 ta hududda eng yuqori natija ko‘rsatgan o‘quvchilarga 700 ta noutbuk, “TOP – 10”talikka kiruvchi pedagoglarga chet elga sayohat, loyiha doirasida eng yuqori natija ko‘rsatgan 100 ta o‘qituvchiga 10 million so‘mdan pul mukofoti va “TOP – 3”talikka kiruvchi oliy ta’lim muassasalariga pul mukofotlari beriladi.

«Xalq so‘zi».

“Xalq so‘zi” va “Narodnoye slovo” gazetalari tahririyati jamoasi Bosh muharrirning iqtisod va marketing bo‘yicha o‘rinbosari Akrom Hoshimovga ukasi

Tolibjon HOSHIMOVning

vafoti munosabati bilan chuqur ta’ziya izhor etadi.



Qadimiy ekouylar asrab qolinadimi?

Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi ma’lumotiga ko‘ra, hududda ayni damda davlat ro‘yxatiga olingan 110 ta qadimiy uy bor. Ularning deyarli barchasi Buxoro shahrida joylashgan. Shulardan biri – Bahouddin Naqshband ko‘chasidagi 52-uy.



Achchiq, ammo ochiq gaplar

Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasida uzoq yillar faoliyat ko‘rsatgan, zukko va fidoyi tarixchi olim B. Qozoqov shu hovlida yashagan. Mehmonxona, dahliz va yana bir xonadan iborat naqshinkor binodagi bitiklarga sinchkovlik bilan qararkan, hamrohimiz – muzey-qo‘riqxona ilmiy xodimi Axtam Ahmedov e’tiborimizni uning 1911-yilda qurilgani haqidagi yozuvga qaratdi. Hovlidagi yana bir uy esa undan ham qadimiyroq.

– Bu hovli bizga bobomizdan meros, – deydi domlaning qizi Mayram Qozoqova. – U kishi o‘z davrining obro‘li kishilaridan bo‘lgan.

Yog‘ochdan bunyod qilingan, supasi obig‘ishtli, qurilishida tamoman tabiiy mahsulotlar ishlatilgan, betakror naqshlar bilan bezatilgan bu go‘shaga “ekouy” deya ta’rif berish mumkin. Kaftdek hovlida hatto bundan 150-yil muqaddam yomg‘iru qor va oqova suvlarning yon-atrofga ziyoni tegmay tashnav orqali chiqib ketishi, bugungi ibora bilan aytganda, kanalizatsiya tizimi ham yo‘lga qo‘yilgan.

– Ota-bobolarimiz juda zukko bo‘lishgan, – deydi buxorolik taniqli ganchkor usta Alisher G‘oyibov. – O‘ziga to‘q, boy-badavlat kishilar dabdababozlikka berilmay uyning tashqi qismini oddiy ko‘rinishda barpo etishgan. Ya’ni moddiy imkoniyati cheklangan qo‘ni-qo‘shni, mahalladoshlarining ko‘ngli cho‘kishini istashmagan. Boshqacha aytganda, eldan chiqishmagan, buni hayotiy qoidaga aylantirishgan. Imoratning ichki qismi qurilishiga esa qo‘ligul ustalarni jalb etib, bino qiyofasini san’at asari darajasiga keltirishgan. Yuqorida aytilgan qadimiy uy, haqiqatan ham, betakror san’at durdonasi. Ayrim naqshlari ustiga tilla suvi yuritilgan. Aytish mumkinki, bu uyda Buxoro ganchkorlik maktabining noyob namunalari aks etadi.

Ustaning bunga alohida urg‘u berishi bejiz emas. Buxoroning qadimiy ekouylarida imoratsozlikning asrdan-asrga o‘tib kelgan an’analarini ko‘rish mumkin. Shaharning umumjahon merosi sifatida UNESCO tomonidan e’tirof etilgan qismidagi bu uylar yilning to‘rt fasliga moslab qurilgan. Ulardagi ganchkorlik namunalari esa Alisher G‘oyibov singari nozikta’b ustalar uchun asriy an’analarni saqlash, ularni boyitish yo‘lida o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tab kelyapti.

Sirasini aytganda, xalqimizning ardoqli farzandi Usta Shirin Murodov ham shu maktabdan o‘rganib, umrboqiy me’moriy obidalar yaratgan, qadimiy yodgorliklarni ta’mirlagan.

> *“Afsuski, qadimiy uylarni asl holicha saqlash, asrab-avaylash, ularni kelajak avlodga yetkazish yechimtalab masalaga aylanib boryapti. Mana, bir misol. Biz yuqorida ta’rifini keltirgan qadimiy uy poydevorining bir tomoni tashqi ta’sir oqibatida cho‘kib qolgan. Shu tufayli uy eshigiga qulf tushdi.”*

– Darhaqiqat, bu ko‘hna ekouylarda butun boshli Buxoro ganchkorlik maktabi an’analari mujassam, – deydi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori Komiljon Rahimov. – Ularda, xususan, mehmonxona vazifasini o‘taydigan xonalarda arab yozuvidagi noyob bitiklar ko‘p. Bu yerda mehmonlarni xushnud etadigan, ularning kayfiyatiga kayfiyat qo‘shadigan so‘zlar, she’rlarni o‘qib, o‘zingizni she’riyat bo‘stoniga kirib qolganday his etasiz. Bu bitiklar atroflicha o‘rganilib, fotoalbom tayyorlansa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Toki, kelgusi avlod ham bu merosdan bahra olsin.

Olimning bu taklifni o‘rtaga tashlashi bejiz emas. Afsuski, qadimiy uylarni asl holicha saqlash, asrab-avaylash, ularni kelajak avlodga yetkazish yechimtalab masalaga aylanib boryapti. Mana, bir misol. Biz yuqorida ta’rifini keltirgan qadimiy uy poydevorining bir tomoni tashqi ta’sir oqibatida cho‘kib qolgan. Shu tufayli uy eshigiga qulf tushdi.

– Hozir boshqa manzilda yashayapmiz, – deydi Mayram Qozoqova. –Qaramog‘imda xasta onam bor. Uyni ta’mirlashga qurbimiz yetmaydi. Shu bois katta-kichik tashkilotlarga ta’mir masalasida ko‘mak so‘rab murojaat qildim. Ammo foydasi bo‘lmadi. “Bankdan kredit olib, uyni ta’mirlashingiz mumkin” degan mazmunda javob oldik.

Xullas, o‘qituvchilik ortidan umrguzaronlik qilgan ayolda bu qadimiy uyni ta’mirlash imkoniyati yo‘qligi bois ham uyni sotuvga qo‘yishga majbur bo‘ldi. Xo‘sh, uy sotilgach uning keyingi taqdiri qanday bo‘ladi?

– Bir paytlar Labihovuz atrofidagi bir-ikkita ko‘hna uyni xususiy mehmonxonaga aylantirish maqsadida xarid qilishganidan xabar topdimu qiziqish yuzasidan ko‘rgani bordim, – deydi bu savolga javoban Alisher G‘oyibov. – O‘shanda tadbirkor ishga yollagan, me’morchilikdan umuman yiroq odamlar imoratni ko‘r-ko‘rona buzishayotgani, muqarnaslarni qo‘porishayotgani ustidan chiqdim. Eslasam, hali-hanuz yuragim achishadi. Bu qadimiy uyning yangi egasi ham uni yangidan qurish bahonasida nodir san’at asarini yakson qilmasmikin, degan xavotirdaman.

Ustaning kuyinganicha bor. Axir Buxoroi sharif shusiz ham e’tiborsizlik va tashqi ta’sirlar oqibatida qanchadan-qancha qadimiy uylardan ayrilib qolgani bor gap. 1920-yilgi sho‘rolar bosqini paytida vayron qilingan obidalarni-ku aytmay qo‘ya qolaylik.

Tabiiyki, bu masalada viloyat madaniy meros boshqarmasi mas’ullarining fikri bilan ham qiziqdik. Ular bilan suhbatdan ayon bo‘ldiki, qadimiy uylarning barchasini bir tekis nazorat qilishning imkoni yo‘q. Xususiy mulk egalaridan ham uylarni asrash, ta’mirlash, ularda zamonaviy shart-sharoitlarni yaratish kabi masalalarda ko‘plab murojaatlar tushyapti. Boshqarma o‘z vakolatidan kelib chiqib, eski shahardagi uy egalariga maslahat, tavsiyalar bermoqda. Xususiy mulk sohibi sifatidagi burchini eslatmoqda. Jumladan, Buxoro tarixiy markazi aholisi va turarjoy egalari uchun ko‘hna uylarni saqlash, muhofaza qilish va zamonaviy foydalanish uchun moslashtirish bo‘yicha qo‘llanma chop etilgan.

Hayot esa mavjud tarixiy uylarni davlat tomonidan muhofaza qilishga oid qonunchilikni takomillashtirish, soddalashtirishni taqozo etyapti. Toki, hammasi besh qo‘ldek ayon bo‘lsin. Xususiy mulk sanalgan, ammo tarixiy qiymatga ega uylarni asrab-avaylash, ularni ta’mirlash, tiklash, konservatsiya qilish kabi yumushlarga davlat tomonidan mablag‘ ajratilishi masalasiga ham oydinlik kiritish zarur.

Bahouddin Naqshband ko‘chasida joylashgan 52-uyga kelsak, balki uni mahalliy hokimlik xarid qilib, keyinchalik chog‘roq bir muzeyga aylantirar. Ishonchimiz komil, chet ellik mehmonlarni an’anaviy Buxoro uylari, undagi osoriatiqalar, turmush tarzi aslo befarq qoldirmaydi. Biz suhbatlashgan gid-tarjimonlar ham shu fikrni bildirishdi. Qolaversa, mutaxassislar e’tirof etganidek, bu nodir imoratni kelgusi avlodga yetkazishning eng maqbul yo‘lidir.

Istam IBROHIMOV
(“Xalq so‘zi”).

Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining O‘zbekistondagi vakolatxonasi rasman o‘z ishini boshladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan.Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-2142. 10 908 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan.Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.05 Topshirildi — 23.50 1 2 3 4 5 6